

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZIMLARI VA ULARNI MAMLAKTIMIZDA QO'LLASH

Baxramov Abdulaziz

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0005-5671-1594

abdulaziz_1141@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada rivojlangan mamlakatlarda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining iqtisodiy samaradorligi va tashkiliy mexanizmlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni mamlakatimiz iqtisodiyotiga moslashtirish orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun qulay moliyaviy muhit yaratish imkoniyatlari ko'rib chiqildi. Shu bilan birga, tahlil natijalari asosida davlat siyosatini yanada takomillashtirish, yangi moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish va mavjud muammolarni bartaraf etish yo'nalishlarida aniq tavsiyalar ishlab chiqish ham tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: moliyalashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar, venchur kapital, davlat-xususiy sheriklik, kraudfanding, islomiy moliyalashtirish, huquqiy va moliyaviy tizim, tijorat banklari, tadbirkorlik subyektlari, bank sektori.

МЕХАНИЗМЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ В РАЗВИТЫХ СТРАНАХ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ В НАШЕЙ СТРАНЕ

Бахрамов Абдулазиз

Ташкентский государственный
экономический университет

Аннотация. В данной статье анализируются экономическая эффективность и организационные механизмы экономических субъектов в развитых странах. Результаты исследования показывают, что рассмотрены возможности создания благоприятной финансовой среды для экономических субъектов путем изучения зарубежного опыта и его адаптации к экономике нашей страны. Одновременно, на основе результатов анализа разработаны конкретные рекомендации в области дальнейшего совершенствования государственной политики, внедрения новых механизмов финансирования и устранения существующих проблем.

Ключевые слова: финансирование, экономические субъекты, венчурный капитал, государственно-частное партнерство, краудфандинг, исламское финансирование, правовая и финансовая система, коммерческие банки, хозяйствующие субъекты, банковский сектор.

MECHANISMS FOR FINANCING BUSINESS ENTITIES IN DEVELOPED COUNTRIES AND THEIR APPLICATION IN OUR COUNTRY

Baxramov Abdulaziz

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article analyzes the economic efficiency and organizational mechanisms of economic entities in developed countries. The results of the study show that the possibilities of creating a favorable financial environment for economic entities by studying foreign experiences and adapting them to the economy of our country were considered. At the same time, based on the results of the analysis, specific recommendations were developed in the areas of further improving state policy, introducing new financing mechanisms and eliminating existing problems.*

Keywords: *financing, economic entities, venture capital, public-private partnership, crowdfunding, Islamic financing, legal and financial system, commercial banks, business entities, banking sector.*

Kirish.

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash va ularning raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xo'jalik yurituvchi subyektlarni samarali moliyalashtirish tizimini shakllantirishda rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalaridan foydalanish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb qilish hamda kreditlash tizimini rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni mamlakatimiz iqtisodiyotiga moslashtirish orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun qulay moliyaviy muhit yaratish imkoniyati mavjud.

Rivojlangan davlatlarning xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliyalashtirishdagi yondashuvlari turlicha bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, AQShda kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularga kredit kafolatlari va imtiyozli moliyalashtirish imkoniyatlari yaratilgan. Germaniyada esa davlat tomonidan subsidiyalar ajratish va investitsion grantlar taqdim etish tizimi samarali yo'lga qo'yilgan. Yaponiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda esa texnologik tadbirkorlikni rivojlantirish uchun venchur kapital va innovatsion kreditlash mexanizmlaridan keng foydalaniladi.

Adabiyotlar sharhi.

Damodaran kompaniya qiymatini oshirishda asosiy omil bu kelajak pul oqimlarini maksimallashtirish ekanligini ta'kidlaydi. U VBM ni strategik qarorlar qabul qilishda asosiy instrument sifatida ko'radi va DCF modeli orqali investitsiyalarni baholashni taklif qiladi.

Porter va Kramer (2019) kompaniyalar faqat foyda emas, balki ijtimoiy va ekologik qiymat yaratishi kerakligini ta'kidlaydi. ESG moliyalashtirish orqali kompaniyalar investorlar ishonchini oshiradi.

Cumming va Johan, (2017) venchur kapitalni startap va innovatsiyalarning asosiy moliyaviy manbai sifatida ko'rsatadi. Venchur investorlar faqat mablag' emas, balki strategik yordam ham beradi.

Mishkin (2021) ta'kidlaydiki, moliya bozorlari va banklar resurslarni samarali taqsimlash orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Kredit tizimi biznes rivojining asosidir.

Kaplan va Cooper (2019) ABB ni xarajatlarni aniq hisoblash va optimal taqsimlash uchun eng samarali usul deb hisoblaydi. Bu usul resurslar samaradorligini oshiradi.

Bogsnes (2020) an'anaviy budjetlashtirishni tanqid qilib, Rolling Forecasting orqali dinamik boshqaruv va tez qaror qabul qilish mumkinligini ta'kidlaydi.

Kotler (2021) raqamli iqtisodiyotda FinTech va platformalar orqali investitsiya jalb qilish osonlashganini ta'kidlaydi. Bu biznes modellarni tubdan o'zgartirmoqda.

Arner, Barberis, and Buckley, (2018) bu olimlar FinTech ni moliya sohasida inqilob qiluvchi omil deb baholaydi. U biznes uchun moliyaviy xizmatlarga kirishni osonlashtiradi.

Yuqoridagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy moliyalashtirish tizimi an'anaviy kreditlash bilan cheklanib qolmay, venchur kapital, ESG, FinTech va innovatsion budjetlashtirish usullari bilan uyg'unlashgan holda rivojlanishi zarur.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, taqqoslash, sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha izlanishlar hamda sohaga doir qonuniy va me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimizda xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliyalashtirish bo'yicha davlat tomonidan turli dasturlar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Jumladan, tadbirkorlikni rivojlantirish jamg'armasi, imtiyozli kredit liniyalari, soliq yengilliklari hamda davlat kafolatlari orqali tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash tizimi mavjud. Biroq, ushbu moliyaviy vositalarning barcha tadbirkorlarga yetarlicha qulay va samarali ekanligi borasida muayyan muammolar saqlanib qolmoqda. Shuning uchun xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini o'rganib, ularni milliy iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish orqali moliyalashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish lozim.

Ilg'or tajribalarni qo'llashda bir necha muhim yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi navbatda, venchur kapital tizimini rivojlantirish zarur. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion startaplarni moliyalashtirish uchun venchur kapital muhim vositalardan biri hisoblanadi. Bu orqali yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni tijoratlashtirish imkoniyatlari kengayadi. AQSh va Yevropa davlatlarida venchur fondlari va startap akseleratorlari samarali faoliyat yuritib, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda. O'zbekistonda ham venchur kapitalni rivojlantirish orqali ilmiy-texnologik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mumkin.

Ikkinchi muhim yo'nalish – davlat-xususiy sheriklik modelini keng joriy etishdir. Rivojlangan davlatlarda davlat va xususiy sektor hamkorligi iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi. Masalan, Buyuk Britaniya va Germaniyada ushbu model asosida infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash tizimi shakllangan. Mamlakatimizda ham davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish orqali biznes subyektlari uchun moliyaviy resurslarni jalb qilishni kengaytirish mumkin.

Uchinchi yo'nalish – bank kreditlash tizimini takomillashtirish. Rivojlangan davlatlarda uzoq muddatli va past foizli kreditlar biznes subyektlari uchun muhim moliyaviy manba hisoblanadi. Masalan, Xitoyda davlat kafolati asosida tadbirkorlarga beriladigan kreditlar kichik va o'rta biznesning rivojlanishiga katta yordam bermoqda. Mamlakatimizda ham kredit olish jarayonini soddalashtirish, foiz stavkalarini pasaytirish va kafolat mexanizmlarini kengaytirish orqali biznes muhitini yanada yaxshilash mumkin.

To'rtinchi yo'nalish – innovatsion moliyalashtirish usullaridan foydalanish. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda kraudfanding (jamoaviy moliyalashtirish) va kripto-aktivlar orqali investitsiya jalb qilish keng ommalashgan. Ushbu mexanizmlar kichik biznes va startaplar uchun muqobil moliyaviy manba bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda ham kraudfanding platformalarini rivojlantirish va tadbirkorlik subyektlarini zamonaviy moliyaviy texnologiyalardan foydalanishga rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega.

Beshinchi yo'nalish – soliq yengilliklari va grantlar tizimini kengaytirish. Rivojlangan davlatlarda yangi tashkil etilgan korxonalar uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalar qo'llaniladi. Masalan, Fransiya va Kanada tajribasida yangi biznes subyektlari dastlabki yillarda soliqdan

ozod qilinadi yoki minimal stavkalar asosida soliq to'laydi. Ushbu amaliyotni mamlakatimizda qo'llash orqali yangi tadbirkorlarning bozorga kirishini yengillashtirish mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarning xo'jalik yurituvchi subyektlarini moliyalashtirish bo'yicha ilg'or tajribalarini o'rganish va ularni milliy iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish mamlakatimiz uchun katta ahamiyatga ega. Venchur kapitalni rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, kreditlash tizimini takomillashtirish, innovatsion moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish va soliq yengilliklarini qo'llash orqali tadbirkorlikni rivojlantirishga zamin yaratish mumkin. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Rivojlangan mamlakatlarning xo'jalik yurituvchi subyektlarini moliyalashtirish mexanizmlari bo'yicha ilg'or tajribalarni o'zlashtirishda bir qator muhim jihatlarga e'tibor qaratish zarur. Avvalo, har bir mamlakatning o'ziga xos iqtisodiy, huquqiy va moliyaviy tizimi mavjudligi sababli, xorijiy tajribalarni bevosita nusxalash emas, balki ularni mahalliy sharoitga moslashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda milliy iqtisodiy strategiyalar va mahalliy biznes muhitining o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinishi lozim.

Huquqiy va me'yoriy-huquqiy asoslarni rivojlantirish muhim omillardan biridir. Rivojlangan davlatlarda biznes subyektlarini moliyalashtirishga oid qonunchilik aniq va samarali ishlaydi. O'zbekiston sharoitida ham venchur kapital, kraudfanding, islomiy moliyalashtirish kabi mexanizmlarni tatbiq etish uchun maxsus qonunchilik bazasi yaratilishi zarur. Shuningdek, davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Chet el tajribasidan kelib chiqib, xususiy banklar, investitsion fondlar va davlat dasturlarini uyg'unlashtirish orqali tadbirkorlik uchun qulay moliyaviy muhit shakllantirilishi kerak.

Bank tizimini modernizatsiya qilish ham muhim masalalardan biridir. Rivojlangan davlatlarda tijorat banklari tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli kreditlar va kafolat tizimlarini taklif qiladi. O'zbekiston bank sektorida ham zamonaviy kreditlash mexanizmlarini yo'lga qo'yish, davlat tomonidan kafolatlangan kreditlar va soddalashtirilgan biznes kredit tizimlarini joriy etish dolzarb hisoblanadi. Shu bilan birga, innovatsion moliyalashtirish vositalari, jumladan, fintech xizmatlari, raqamli bank tizimlari va kraudinverting platformalarini rivojlantirish biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini kengaytiradi. Kichik va o'rta biznes uchun investitsion muhitni yaxshilash rivojlangan mamlakatlarda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Germaniya, AQSh, Yaponiya kabi mamlakatlarda KO'B subyektlari maxsus dasturlar orqali qo'llab-quvvatlanadi. O'zbekistonda ham kichik biznes uchun imtiyozli moliyaviy dasturlarni kengaytirish va davlat tomonidan subsidiya mexanizmlarini rivojlantirish tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning samarali usuli hisoblanadi.

Xalqaro investitsiyalarni jalb qilish strategiyasini ishlab chiqish ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay biznes muhiti yaratish, xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlarni ta'minlash va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali biznesning rivojlanishiga turtki berish mumkin. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llaniladigan islomiy moliyalashtirish vositalari ham O'zbekiston sharoitida muhim moliyaviy mexanizmlardan biri bo'lishi mumkin.

Tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligini oshirish masalasi ham katta ahamiyatga ega. Moliyalashtirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun tadbirkorlar uchun maxsus treninglar va konsalting xizmatlarini tashkil etish rivojlangan mamlakatlarda samarali ishlar oqda. O'zbekiston tadbirkorlari uchun ham moliyaviy boshqaruv va investitsion rejalashtirish bo'yicha o'quv kurslarini kengaytirish talab etiladi.

Barcha moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligini ta'minlash uchun davlat tomonidan barqaror monitoring va nazorat tizimini yo'lga qo'yish zarur. Rivojlangan davlatlarda moliyalashtirish dasturlarining samaradorligini baholash va takomillashtirish uchun maxsus markazlar tashkil etiladi. O'zbekistonda ham tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy ehtiyojlarini doimiy ravishda o'rganish va shu asosda yangi strategiyalar ishlab

chiqish lozim.

Moliyaviy isloh qilish dasturi quyidagilarni ko'zda tutadi: xo'jalik yurituvchi subyektning tashkiliy va mulkiy holatini o'zgartirish (yuqori samarali tashkiliy shakl, kapitalning tarkibiy tuzilishini o'zgartirish va uni samaradorlikni oshirish maqsadlari uchun joylashtirish, yuqori talabga ega bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarishni rivojlantirish va h.k.); ishlab chiqarishning investision-texnologik bazasini o'zgartirish (asosiy fondlar va aylanma mablag'larning tarkibiy tuzilishi, texnologik yangiliklarni joriy etish, ishlab chiqariladigan mahsulotlarni yangilash va h.k.); ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatining yuqori yakuniy natijalariga – xo'jalik yurituvchi subyektning ixtiyoriga qoldiriladigan sof foydaga erishish, kompaniyaning qiymatini o'stirish va xarajatlarni qisqartirishning tashkiliy negizi bo'lgan asoslangan biznes-rejani ishlab chiqish; xo'jalik yurituvchi subyektning asoslangan marketing va baho strategiyasini ishlab chiqish; xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy strategiyasini uning ishlab chiqarish-marketing siyosati bilan o'zaro ta'sirchanligi (bog'liqligi)ni asoslash.

Yuqoridagilarning barchasi moliyaviy munosabatlarni tegishlitarzda qayta qurishni, xo'jalik yurituvchi subyekt boshqarishda moliyaviy oqimlarning rolini oshirishni; tushum, xarajatlar, foyda, soliqqa tortish norma (me'yor)lari, sof foyda, umumiy va o'zlik kapitalining hajmi va manbalaridan iborat bo'lgan moliyaviy indikatorlarning o'zgarishini monitoring qilish orqali moliyaviy boshqaruvning yaxlit samaralitizimi shakllantirilishini talab qiladi. Bu ishlar, o'z navbatida, quyidagi shartlar asosida amalga oshirilishi mumkin: xo'jalik yurituvchi subyekt xo'jalik-ishlab chiqarish faoliyatiga oid moliyaviy oqimlarning o'zaro aloqadorligini kuchaytirish va ularda ishlab chiqarish omillari – moddiy, mehnat, informatsion va boshqa resurslarning tegishli harakatlarini yanada to'laroq aks ettirish; boshqaruv qarorlari qabul qilishda, xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy resurslari o'sishining rezervlarini to'liq qidirib topish va amalga oshirishda uning moliyaviy-analitik xizmatlari rolini oshirish; xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini moliyaviy resurslar bilan yanada to'liq- roq ta'minlash uchun o'z bilimlarini sarf etayotgan moliyaviy menejment malakasi darajasini oshirish; xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risida xalqaro andozalarga muvofiq ravishda ma'lumotlar olish, xo'jalik yurituvchi subyektlar, firmalar va korporatsiyalar faoliyatida yuqori darajadagi barqarorlikni ta'minlash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro andozalariga o'tish.

1-jadval

Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy isloh qilish dasturi


Tadbirlar	Foydali jihatlar
Xo'jalik yurituvchi subyekt ning bozordagi holatini, uning moliya-xo'jalik faoliyatini va boshqaruv samaradorligini tahlil qilish	Xo'jalik yurituvchi subyekt rivojlanishining asosiy ichki va tashqi muammolari va ularni hal etishning oqilona yo'llarini qidirib topish, moliyaviy holatni mustahkamlash uchun rezervlardan foydalanish
Xo'jalik yurituvchi subyekt taraqqiyotining moliyaviy strategiyasini ishlabchiqish	Kelajakda ishlab chiqarish-iqtisodiy faoliyatning eng yuqori samaradorligiga erishish imkonini beradigan taraqqiyotning o'rta va uzoq muddatli mo'ljallarini asoslash
Kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash	xo'jalik yurituvchi subyekt xodimlari malakasining hozirgi zamon va istiqbol talablariga muvofiq kelishi. Bu narsa xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holati va uzoq muddatli taraqqiyoti barqarorligining asosiy omili hisoblanadi
Xo'jalik yurituvchi subyekt aktivlarini bozor baholashi	xo'jalik yurituvchi subyekt ustav kapitalini oshirish imkoniyatlarini amalga oshirish. Bu narsa kreditorlarning ehtimoliy talablarini qondirishning minimal kafolatlari darajasini oshirishni va shu hisobidan kontragentlar bilan yuqori darajada barqarorlikni, firma qiymatining oshishini ta'minlaydi

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy isloh qilish dasturini tuzish jarayonidaha bir tadbirdan ma'lum bir samara olinishi ko'zda tutilmog'i lozim. Quyida o'tkazilishi lozim bo'lgan eng muhim tadbirlar va xo'jalik yurituvchi subyekt (xo'jalik yurituvchi subyekt, korporatsiya va boshqalar) tomonidan olinadigan foydali jihatlar o'z aksini topgan (1-jadval):

Xo'jalik yurituvchi subyektni moliyaviy isloh qilish rejasining barcha bo'linmalari kapitalni shakllantirish va undan foydalanish samaradorligini oshirish, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatida kapitallashtirishning oqilona darajasiga erishish borasidagi yagona asoslangan konsepsiyaga bo'ysunishi va o'zaro muvofiqlashtirilishi kerak. Bu isloh qilish jarayonida ancha yuqori bo'lgan integral samaraga erishishga imkon beradi.

Bir vaqtning o'zida mamlakatning xo'jalik tizimi murakkab tuzilmadan iborat bo'lib, aralash iqtisodiyot sifatida faoliyat ko'rsatadi. Uning tarkibida foyda olishga qaratilgan biznes-sohasi bilan bir qatorda iqtisodiyotning boshqa sektorlari ham mavjudki, ularning faoliyati ijtimoiy farovonlikka erishishga yo'naltirilgan. Bularning tarkibiga davlat sektoridan tashqari ba'zi mamlakatlarda katta masshtablarga ega bo'lgan va nisbatan Yuqori sur'atlarda o'sib borayotgan notijorat sektori ham kiradi. Hozirgi sharoitda notijorat sektori tashkilotlarining Yuqori sur'atlarda tez o'sib borayotganligi, bir tomondan, jamiyatni demokratlashtirish siyosiy jarayonlarining rivojlanishi va ikkinchi tomondan, bozor iqtisodiyotining sotsial yo'naltirilganligi (bu narsa bizning mamlakatimiz uchun xarakterlidir) bilan bog'liq.



1-rasm. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar uchun zamonaviy moliyalashtirish usullari

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Ishlab chiqarish chiqimlarini dastlab ikki guruhga bo'lish mumkin: aniq yoki haqiqatdagi chiqimlar; aniq bo'lmagan chiqimlar. Aniq yoki haqiqatdagi chiqimlar xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan amalga oshirilgan aniq xarajatlardan – ish haqi, xom ashyo va materiallar xarajatlari, ijara uchun to'lov va boshqalardan iborat. Aniq bo'lmagan, almashgan chiqimlar yoki qo'ldan boy berilgan, qo'ldan chiqarilgan imkoniyatlar chiqimlari esa shu bilan bog'liqki, xo'jalik yurituvchi subyekt mahsulot ishlab chiqarish uchun kapitaldan foydalanib, shuning o'zida uning muqobil foydalanish imkoniyatini qo'ldan chiqaradi.

**“Value-Based Management (VBM)”, “Activity-Based Budgeting (ABB)”, “Rolling Forecasting”, “Zero-Based Budgeting (ZBB)”,
“FinTech va Raqamli Moliyalashtirish” va “ESG Financing” kabi zamonaviy usullarining mohiyati**

Zamonaviy usullar	Taklif maqsadi	Formula	Taklifni qo'llanilish sohasi	Afzalliklari	Kamchiliklari	Taklif samarasi
Value-Based Management (VBM)	Qiymat yaratishga asoslangan boshqaruv, investorlar uchun qo'shimcha qiymat yaratish orqali kompaniya samaradorligini oshirish.	$EV = NOPAT \times (1 - g / ROIC)$ Enterprise Value (EV), Net Operating Profit After Tax (NOPAT), Return on Invested Capital (ROIC)	Katta korporatsiyalar, strategik rejalashtirish, investitsiyalar boshqaruvi	Uzoq muddatli rivojlanishga xizmat qiladi, kapital samaradorligini oshiradi, investorlarni jalb qiladi.	Investorlar uchun qisqa muddatli daromad olish qiyinlashishi, to'g'ri strategiya talab qilinishi.	Investorlar bilan doimiy muloqot, to'g'ri moliyaviy tahlil va rejalashtirish
Activity-Based Budgeting (ABB)	Xarajatlarni faoliyat bo'yicha ajratish va optimallashtirish orqali byudjetni samarali boshqarish.	Xarajat = Faoliyat hajmi × Faoliyat birligiga xarajat Har bir faoliyat uchun alohida hisob-kitob	Xarajatlarni aniq boshqarish zarur bo'lgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sektorlari	Resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlarni nazorat qilish, ortiqcha sarflarni kamaytirish.	Hisob-kitob va tahlil murakkabligi, doimiy monitoring zarur.	Har bir faoliyatni aniq baholash va samaradorligini oshirish strategiyasi
Rolling Forecasting	Har oy yoki choraklik asosda byudjet va moliyaviy prognozlarni doimiy yangilash.	Prognoz = (Avvalgi prognoz + Hozirgi natija) / 2 Bozor o'zgarishlarini inobatga olib, dinamik yangilash	Bozor noaniqligi yuqori bo'lgan sohalarda (masalan, chakana savdo, logistika)	Bozor o'zgarishlariga tez moslashish, strategik rejalarini yangilab borish, samarali boshqaruv.	Tez-tez prognoz yangilash resurs talab qiladi, noaniqlik yuqori bo'lishi mumkin.	Bozor va iqtisodiy sharoitlarni chuqur o'rganish, o'zgarishlarga tez moslashish
Zero-Based Budgeting (ZBB)	Har bir byudjet davrida xarajatlarni noldan rejalashtirib, har bir xarajatning zarurligini asoslash.	Byudjet = Noldan qayta tahlil + Harajat zarurligi Har bir xarajat iqtisodiy jihatdan asoslanishi lozim	Katta va murakkab moliyaviy boshqaruv talab qilinadigan kompaniyalar	Moliyaviy nazoratni kuchaytirish, ortiqcha sarflarni yo'q qilish, resurslarni samarali taqsimlash.	Har bir sarf-xarajatni asoslash zarurati, vaqt talab qiluvchi jarayon.	Xarajatlarni tahlil qilish va zaruriy investitsiyalarni asoslash uchun kuchli moliyaviy jamoa
FinTech va Raqamli Moliyalashtirish	Raqamli texnologiyalar (blokcheyn, kraudfanding, sun'iy intellekt) orqali tezkor va samarali moliyalashtirish.	Blokcheyn xavfsizligi = Hash(n-1) + Hash(n) Kriptografik xavfsizlik uchun foydalaniladi	Bank-moliya, startaplar, onlayn kreditlash va to'lov tizimlari	Moliyalashtirish jarayonlarini tezlashtirish, shaffoflikni ta'minlash, investitsiyalarni jalb qilish.	Raqamli xavfsizlik muammolari, texnologik infratuzilmaga bog'liqlik.	Texnologik infratuzilma va kiberxavfsizlikni ta'minlash
ESG Financing	Ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv tamoyillariga asoslangan moliyalashtirish modeli.	ESG Score = (Environmental + Social + Governance) / 3 Kompaniyaning ESG reytingi baholash mezon	Barqaror rivojlanishga intiluvchi kompaniyalar, ekologik va ijtimoiy mas'uliyatli loyihalar	Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, uzoq muddatli barqaror rivojlanish, ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni oshirish.	Investorlar uchun uzoq muddatli foyda talab qilishi, ESG tamoyillarini to'liq bajarish qiyinligi.	Barqarorlik standartlariga rioya qilish va ESG tamoyillarini ichki siyosatga qo'shish

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi

Mablag'larning cheklanganligi ularning foydalilik darajasiga qarab mavjud imkoniyatlarning variantlaridan foydalanishga xo'jalik yurituvchi subyektni majbur qiladi. Bunda har doim qo'ldan chiqarilgan, boy berilgan foydalar elementlari, demak, aniq bo'lmagan chiqimlar elementlari mavjud bo'ladi. U yoki bu mahsulotni ishlab chiqarishni davom ettirish yoki uni yanada kengaytirish xususida har qanday boshqaruv qarori aniq va aniq bo'lmagan chiqimlarning hisob-kitobiga asoslanadi. U yoki bu iqtisodiy qaror o'rtasidagi tanlanish har doim boshqa maqsadlarga erishish uchun ongli ravishda yo'qotilgan yoki rad etilgan imkoniyatlarni xarakterlaydi.

Ushbu usullar kompaniyalarga raqobatbardoshlikni oshirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va investitsiyalarni jalb qilishda samarali yordam beradi.

Qiymatga asoslangan menejment (VBM) strategik yondashuv bo'lib, mijozlar bazasini qiymat bo'yicha boshqarish orqali biznes yoki tashkilotning uzoq muddatli qiymatini maksimal darajada oshirishga qaratilgan. Maqsad rentabellikni yaxshiroq optimallashtirish va natijada aksiyadorlar uchun qiymat yaratishdir.

Korxonalar loyihalar, mahsulotlar va mijozlar foydali bo'lishini va o'z investitsiyalaridan uzoq muddatli daromad olishini ta'minlashi kerak. Qarorlar faqat qisqa muddatli daromadga asoslanmasligi kerak va kelajakda barqaror va foydali bo'lishiga ishonch hosil qilish uchun uzoq muddatli ta'sirlarni hisobga olish kerak.

VBM xodimlarni egalari kabi fikrlashga va biznesga qiymat keltirish orqali aksiyadorlarga foyda keltiradigan qarorlar qabul qilishga undaydi. Menejerlar va rahbarlar doimo qiymat yaratadigan va biznesning uzoq muddatli kelajagiga foyda keltiradigan imkoniyatlarni izlashlari kerak. VBMning muhim konsepsiyasi shundan iboratki, kelajakdagi pul oqimi va mijozlar bazasining o'sishi biznes qiymatining asosiy qismidir. Asosiy biznes qarorlari choraklik daromad yoki aksiya boshiga tushadigan daromad kabi narsalarga asoslanmasligi kerak, bu qisqa muddatli investorlar e'tiborga olishi mumkin. Ular biznesning uzoq muddatli kelajagini chinakamiga o'ylab ko'rishlari kerak.

Value-Based Management (VBM) — bu kompaniyaning strategik va operatsion qarorlarini aksiyadorlar hamda manfaatdor tomonlar uchun qiymat yaratishga yo'naltirish konsepsiyasidir. Ushbu yondashuv kompaniyaning asosiy boshqaruv tamoyillaridan biri bo'lib, uning maqsadi nafaqat qisqa muddatli moliyaviy natijalarni yaxshilash, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashdan iborat.

Value-Based Management (VBM) usuli asosan rivojlangan iqtisodiyotga ega davlatlarda keng qo'llaniladi. Ushbu yondashuv aksiyadorlar qiymatini oshirishga qaratilgan bo'lib, biznes muhitining shaffofligi va kapital bozorlari rivojlangan mamlakatlarda samaraliroq ishlaydi. Jumladan, AQSH VBM tamoyillarini ishlab chiqqan va ushbu yondashuvning eng ilg'or qo'llanilayotgan mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Katta korporatsiyalar (masalan, General Electric VBMni amalga oshirish orqali o'z operatsion samaradorligini oshirdi va aksionerlarning daromadlarini maksimallashtirdi, Coca-Cola kompaniyasi VBMni amalga oshirish orqali o'z iqtisodiy qiymatini oshirdi va aksionerlarning bog'liqligini oshirdi, Apple, Microsoft) bu modelni strategik boshqaruvning asosiy qismi sifatida qo'llaydi. Aksiyadorlik jamiyatlari va fond bozori rivojlanganligi sababli kompaniyalar aksiyadorlar uchun maksimal daromad olishga yo'naltirilgan.

Shuningdek, Buyuk Britaniya kompaniyalari, ayniqsa, London fond birjasida ro'yxatdan o'tgan yirik korporatsiyalar VBM usulidan keng foydalanadi. HSBC, Unilever, BP kabi global kompaniyalar o'z bizneslarini aksiyadorlar qiymatini maksimal oshirish tamoyili asosida yuritadi. Mamlakatda korporativ boshqaruv va moliyaviy shaffoflik darajasi yuqori bo'lgani sababli VBM usuli samarali ishlaydi.

Germaniya sanoat korporatsiyalari, ayniqsa, Volkswagen, Siemens, BMW, BASF kabi yirik kompaniyalar VBM yondashuvini qo'llaydi. Bu mamlakatda VBM nafaqat aksiyadorlarga, balki barcha manfaatdor tomonlarga (mijozlar, xodimlar, yetkazib beruvchilar) qaratilgan holda ishlatiladi. Nemis kompaniyalari uzoq muddatli strategiyalarga katta e'tibor beradi, bu esa VBM ning barqaror rivojlanishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Niderlandiyada joylashgan Shell, Philips kabi global kompaniyalar VBM modelidan foydalanadi. Ushbu mamlakatda korporativ boshqaruv va aksiyadorlar bilan samarali munosabatni ta'minlash tizimi kuchli rivojlangan.

VBM usuli Fransiya korporatsiyalarida, jumladan, L'Oréal, TotalEnergies, Renault kabi kompaniyalarda qo'llaniladi. Fransiya hukumati va biznes muhitida korporativ boshqaruv tamoyillari rivojlangan bo'lib, kompaniyalar qiymat yaratish tamoyiliga amal qiladi.

Yaponiya korporatsiyalarida VBM yondashuvi keyingi yillarda tez rivojlandi, ayniqsa, Toyota, Sony, Mitsubishi kabi kompaniyalarda. Yaponiya an'anaviy ravishda uzoq muddatli strategik rejalashtirishga urg'u beruvchi mamlakat bo'lib, VBM tamoyillari bilan yaxshi mos keladi.

Shveytsariyaning Nestlé, Novartis, UBS kabi yirik xalqaro kompaniyalari VBM tamoyillaridan foydalanadi. Mamlakatda investorlar manfaatlarini himoya qilish tizimi yuqori darajada rivojlangan, bu esa VBM ning samarali ishlashiga imkon yaratadi. Hamda, **VBM rivojlanayotgan mamlakatlarda xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini samarali boshqarish va ko'paytirishda ushbu Value-Based Management (VBM) usulini qo'llamoqdalar va o'z natijasini bermoqda**, jumladan: **Hindiston** (Tata Group, Infosys kabi kompaniyalar), **Xitoy** (Alibaba, Tencent, Huawei kabi yirik texnologik kompaniyalar), **Braziliya** (Petrobras, Vale kabi yirik kompaniyalar), **Janubiy Koreya** (Samsung, Hyundai, LG) kabi davlatlarda VBM yondashuvi oxirgi yillarda jadal rivojlanmoqda.

Biroq, ushbu mamlakatlarda ba'zi kompaniyalar hali ham an'anaviy boshqaruv usullariga tayanadi, shuning uchun VBM to'liq integratsiya qilinmagan. Rivojlanayotgan bozorlarda VBM joriy etish jarayoni, asosan, xorijiy investitsiyalar va global biznes muhitining ta'siri ostida rivojlanmoqda. Value-Based Management (VBM) eng ko'p AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya, Yaponiya, Fransiya kabi rivojlangan iqtisodiyotini mamlakatlarda qo'llaniladi. Ushbu davlatlarda aksiyadorlik jamiyatlari va fond bozorlari rivojlangan bo'lib, biznes qarorlarining asosiy tamoyili aksiyadorlar va investorlar uchun maksimal qiymat yaratishga qaratilgan. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda ham VBM ga qiziqish ortib bormoqda, ayniqsa xalqaro bozorlarda raqobatbardosh bo'lishni istagan kompaniyalar orasida ommalashmoqda. Bizni mamlakatimizda ham **xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliyalashtirish mexanizmlarida ushbu usulni qo'llash albatta o'z samarasini beradi**.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda xo'jalik yurituvchi subyektlarning barqaror rivojlanishi va moliyaviy mustahkamligi ularga taqdim etilgan resurslardan qay darajada samarali foydalanishiga bog'liq. Har bir korxonalar va tashkilot o'z faoliyatini optimallashtirish, xarajatlarini kamaytirish va rentabellikni oshirish maqsadida turli moliyaviy boshqaruv usullaridan foydalanadi. Bunday sharoitda an'anaviy byudjetlashtirish tizimlari ko'pincha o'z samarasini yo'qotmoqda, chunki ular asosan oldingi yillardagi xarajatlarga asoslangan bo'lib, korxonaning kelajakdagi strategik rejalari va real faoliyati bilan to'liq mos kelmaydi. Shu sababli, Activity-Based Budgeting (ABB) – faoliyatga asoslangan byudjetlashtirish usuli global miqyosda moliyalashtirish tizimini takomillashtirish uchun samarali yondashuv sifatida qaralmoqda.

An'anaviy byudjetlash usullarida korxonalar xarajatlarni umumiy bo'limlarga yoki mahsulot guruhlariga asoslangan holda rejalashtiradi. Bunday yondashuv ba'zan ortiqcha moliyaviy yo'qotishlarga olib keladi, chunki ba'zi faoliyatlar haddan tashqari moliyalashtirilsa, boshqalari yetarlicha mablag' ajratilmagani sababli samaradorlikni yo'qotadi. Activity-Based Budgeting (ABB) esa moliyaviy resurslarni bevosita konkret faoliyatlarga yo'naltirib, har bir jarayonning muhimligi, samaradorligi va natijaviyligiga qarab byudjet ajratish tamoyiliga asoslanadi. Bu esa moliyaviy shaffoflikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va korxonaning uzoq muddatli strategik maqsadlariga mos rejalashtirish imkonini beradi.

Bugungi kunda ABB usuli ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, sog'liqni saqlash, ta'lim, bank sektori va davlat boshqaruvi kabi turli sohalarida keng qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuv korxonalarga xarajatlarni kamaytirish, samarasiz operatsiyalarni yo'q qilish, biznes jarayonlarni optimallashtirish va rentabellikni oshirish imkonini beradi. Shu sababli, ABB usuli an'anaviy byudjetlashtirish tizimlarining o'rnini bosuvchi innovatsion yondashuv sifatida qaralmoqdamiz. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarni muvaffaqiyatga erishgan kompaniyalari, korporatsiyalari faoliyatini tahlil qilganimizda ularda o'z faoliyatlarini moliyalashtirishda bir qator zamonaviy usul va uslublardan keng foydalanayotganliklarining guvohi bo'ldik. Albatta bu usullar o'ziga xos tarzida tizimlashtirilgan boshqaruv va normativlarni o'zida aks ettirgan. Activity-Based Budgeting (ABB) usuli asosan rivojlangan davlatlarda, xususan, AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya va Avstraliya kabi mamlakatlarda keng

qo'llanilmoqda. Ushbu davlatlarda ABB usuli nafaqat xususiy sektor, balki davlat boshqaruvi va notijorat tashkilotlarida ham moliyaviy resurslarni samarali boshqarish maqsadida tatbiq etilmoqda. Masalan, Copenhagen Business School (CBS): "Yevropaning yirik biznes universitetlaridan biri bo'lgan CBS o'zining byudjetlashtirish jarayonlarini optimallashtirish maqsadida ABB usulini joriy etdi. Prophix kompaniyasining moliyaviy platformasini qo'llash orqali CBS o'zining moliyaviy ma'lumotlarini real vaqt rejimida kuzatish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Natijada, byudjet tuzish jarayoni tezlashdi va xodimlar tahliliy ishlar uchun ko'proq vaqt ajratish imkoniyatiga ega bo'ldilar"¹.

University of Washington: "AQShning Washington universiteti 2013-yilda ABB tizimini to'liq joriy etdi. Ushbu yondashuv orqali universitet o'zining moliyaviy jarayonlarini shaffoflashtirdi va har bir faoliyat uchun ajratilgan resurslarni aniq kuzatish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa universitetning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qildi"².

Demak, bugungi sharoitda mamlakatimizda ham xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va resurslardan samarali foydalanish uchun Activity-Based Budgeting (ABB) usulini chuqur o'rganish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli, Activity-Based Budgeting (ABB) usuli xo'jalik yurituvchi subyektlarining moliyalashtirish mexanizimini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu usulni joriy etish orqali tashkilotlar moliyaviy resurslaridan samaraliroq foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish va natijada moliyaviy natijalarni yaxshilashga erishishlari mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning barqaror rivojlanishi va moliyaviy mustahkamligi ularning o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashish qobiliyatiga bog'liq. Zamonaviy iqtisodiyotning tezkor rivojlanishi, talab va taklifning o'zgaruvchanligi, raqobatning kuchayishi hamda makroiqtisodiy muhitning dinamikligi an'anaviy byudjetlashtirish va moliyaviy rejalashtirish tizimlariga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Bunday sharoitda Rolling Forecasting (harakatlanuvchi prognozlash) usuli moliyalashtirish mexanizimini takomillashtirish va strategik rejalashtirishni optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Rolling Forecasting — "bu korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlarini doimiy ravishda yangilab boruvchi prognozlash tizimi bo'lib, u har oy yoki har chorakda yangilanadi va kelgusi 12-24 oylik davrni qamrab oladi. Bu yondashuv orqali tashkilotlar real vaqt rejimida moliyaviy holatini baholab, strategik qarorlarni qabul qilishda aniqlik va moslashuvchanlikka erishadilar"³.

An'anaviy budjetlash va rejalashtirish tizimlari odatda yillik asosda amalga oshiriladi va ko'pincha oldindan belgilangan maqsadlar, xarajatlar va daromad prognozlari asosida shakllantiriladi. Ushbu yondashuv uzoq muddatli strategik qarorlarni qabul qilishda yetarlicha moslashuvchan bo'lmasligi mumkin. Rolling Forecasting esa doimiy ravishda yangilanib boruvchi prognozlash tizimi bo'lib, u har oy yoki har chorakda yangilanib, real vaqt rejimida korxonaning moliyaviy salohiyatini baholashga imkon yaratadi.

Ushbu usul "korxonalarining moliyalashtirish tizimini takomillashtirishga, kapital oqimini optimal boshqarishga, investitsion rejalashtirishni samarali tashkil qilishga va xarajatlarni maqbul darajada ushlab turishga xizmat qiladi. Rolling Forecasting orqali tashkilotlar o'zining real moliyaviy holatini aniqlik bilan baholashi, o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga tezkor moslashishi va xatarlarni minimallashtirishi mumkin"⁴.

Ko'plab rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalar Rolling Forecasting usulini joriy etish orqali moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirmoqdalar. Masalan, "Unilever kompaniyasi an'anaviy yillik byudjetlashtirishdan voz kechib, harakatlanuvchi prognozlash tizimini tatbiq etdi. Natijada, kompaniya bozor o'zgarishlariga tezkor javob berish va resurslarni samarali taqsimlash imkoniyatiga ega bo'ldi"⁵.

Shunday qilib, bugungi iqtisodiy muhitda **Rolling Forecasting xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, strategik rejalashtirishni optimallashtirish va bozor sharoitlariga moslashuvchanlikni oshirish uchun muhim vosita** hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda xo'jalik yurituvchi subyektlarning barqaror rivojlanishi va moliyaviy mustahkamligi ularning mavjud resurslardan qanchalik samarali foydalanishiga bog'liq.

¹ <https://it.prophix.com/blog/what-is-activity-based-budgeting-abb/?utm>

² <https://www.washington.edu/opb/uw-budget/activity-based-budgeting/>

³ <https://blog.workday.com/en-us/what-is-a-rolling-forecast>

⁴ <https://www.jedox.com/en/blog/rolling-forecasts/>

⁵ <https://www.wolterskluwer.com/en/solutions/cch-tagetik/glossary/rolling-forecast>

Korxonalar va tashkilotlar har yili byudjet rejalashtirish jarayonini amalga oshirar ekan, an'anaviy byudjetlashtirish usullarining kamchiliklarini his qilmoqdalar. An'anaviy yillik byudjetlashtirish odatda oldingi yillardagi xarajatlarga asoslangan holda amalga oshiriladi va bu resurslarning optimal taqsimlanishiga har doim ham kafolat bera olmaydi. Shu sababli, **Zero-Based Budgeting (ZBB) – nol bazali byudjetlashtirish** usuli tashkilotlarning moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish uchun muhim vosita sifatida tobora keng qo'llanilmoqda.

Zero-Based Budgeting (ZBB) usuli an'anaviy byudjetlashtirishdan tubdan farq qiladi, chunki u har yili moliyaviy rejalashtirish jarayonini "noldan" boshlashni talab qiladi. Ya'ni, har bir faoliyat, loyiha yoki bo'lim uchun ajratiladigan mablag' oldingi yillardagi xarajatlarga emas, balki ushbu faoliyatning dolzarbligi, samaradorligi va kutilayotgan natijalariga qarab shakllantiriladi. ZBB yondashuvi tashkilotlarga ortiqcha xarajatlarni qisqartirish, moliyaviy shaffoflikni oshirish va resurslarni eng muhim yo'nalishlarga yo'naltirish imkonini beradi.

Bugungi kunda Zero-Based Budgeting (ZBB) usuli moliya, xizmat ko'rsatish, savdo, ishlab chiqarish va davlat boshqaruvi kabi ko'plab sohalarda qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuv korxonalariga moliyaviy boshqaruv tizimini optimallashtirish, eng zarur yo'nalishlarga investitsiya kiritish va rentabellikni oshirish imkonini beradi. Shu sababli, ZBB an'anaviy byudjetlashtirishdan voz kechib, yangi strategik moliyalashtirish tizimini yaratish istagida bo'lgan tashkilotlar uchun dolzarb hisoblanadi. Zero-Based Budgeting (ZBB) usuli dunyoning ko'plab yirik kompaniyalari tomonidan moliyaviy resurslarni samarali boshqarish va xarajatlarni optimallashtirish maqsadida qo'llanilmoqda. Jumladan, Dunyodagi eng yirik pivo ishlab chiqaruvchilardan biri bo'lgan AB InBev ZBB usulini joriy etish orqali xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirishga erishdi. Ushbu yondashuv kompaniyaga har bir xarajatni noldan boshlab asoslash va faqat zarur bo'lgan faoliyatlarga mablag' ajratish imkonini berdi. Natijada, AB InBev operatsion xarajatlarni kamaytirib, moliyaviy barqarorlikni mustahkamladi.

3G Capital investitsiya kompaniyasi tomonidan boshqariladigan Kraft Heinz ZBB usulini qo'llash orqali xarajatlarni qisqartirish va samaradorlikni oshirishga muvaffaq bo'ldi. Har bir bo'lim o'z xarajatlarini noldan boshlab asoslashga majbur bo'ldi, bu esa ortiqcha xarajatlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga yordam berdi. Natijada, kompaniya moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilab, raqobatbardoshligini oshirdi.

Xitoyda ZBB usuli davlat va xususiy sektorda keng qo'llaniladi. Masalan, Alibaba kompaniyasi ZBB usulini qo'llab, xarajatlarni kamaytirish va samaradorligini oshirishga erishdi. Global miqyosda faoliyat yurituvchi iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi Unilever kompaniyasi ZBB usulini tatbiq etish orqali marketing va reklama xarajatlarini optimallashtirdi. Har bir marketing faoliyati noldan boshlab baholanib, uning samaradorligi va qaytimi tahlil qilindi. Bu yondashuv kompaniyaga marketing byudjetini samarali taqsimlash va investitsiyalarning qaytishini oshirish imkonini berdi.

Dunyoning yetakchi oziq-ovqat kompaniyalaridan biri bo'lgan Mondelez International ZBB usulini qo'llash orqali xarajatlarni kamaytirish va operatsion samaradorlikni oshirishga erishdi. Har bir bo'lim o'z xarajatlarini noldan boshlab asoslash orqali ortiqcha va keraksiz xarajatlarni aniqlab, ularni bartaraf etdi. Natijada, kompaniya moliyaviy natijalarini yaxshilab, bozor pozitsiyasini mustahkamladi.

Kiyim-kechak ishlab chiqaruvchi Guess Inc. kompaniyasi ZBB usulini joriy etish orqali operatsion xarajatlarni sezilarli darajada qisqartirdi. Har bir xarajat noldan boshlab baholanib, uning zarurati va samaradorligi tahlil qilindi. Bu yondashuv kompaniyaga xarajatlarni optimallashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkonini berdi.

Ushbu misollar shuni ko'rsatadiki, Zero-Based Budgeting usuli yirik kompaniyalarga moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, ortiqcha xarajatlarni qisqartirish va operatsion samaradorlikni oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Har bir xarajatni noldan boshlab asoslash orqali kompaniyalar moliyaviy shaffoflikni ta'minlab, strategik maqsadlarga erishish uchun resurslarni optimal taqsimlash imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Zamonaviy iqtisodiyotning globallasuvi va texnologik taraqqiyot xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy boshqaruv tizimini tubdan o'zgartirmoqda. Raqamli transformatsiya jarayoni nafaqat yirik kompaniyalar, balki kichik va o'rta biznes subyektlari uchun ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu jihatdan, **FinTech (moliya texnologiyalari) va raqamli moliyalashtirish** sohasidagi innovatsiyalar moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishda muhim o'rin tutmoqda. An'anaviy moliyalashtirish usullari ko'p hollarda uzoq muddatli jarayonlar, qattiq me'yoriy cheklovlar va yuqori operatsion xarajatlar bilan bog'liq. Bu esa xo'jalik yurituvchi subyektlarning tezkor moliyaviy qarorlar qabul qilishiga to'sqinlik qilishi mumkin. FinTech va raqamli moliyalashtirish texnologiyalari esa moliyalashtirish jarayonlarini avtomatlashtirish, tezlashtirish va aniqroq prognozlash imkonini beradi.

**Xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishning
SWOT tahlili**

KUCHLI TOMONLARI (STRENGTHS)	ZAIIF TOMONLARI (WEAKNESSES)
<p>Moliyaviy manbalar ko'payishi Bank kreditlari, davlat subsidiyalari, xalqaro moliyaviy institutlar resurslari, obligatsiyalar, grantlar va venchur kapital kabi turli moliyaviy manbalar mavjud. Xususiy investorlar va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik imkoniyatlari ortib bormoqda.</p> <p>Davlat qo'llab-quvvatlash choralari Kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari, imtiyozli kreditlar va soliq yengilliklari mavjud. Yangi startaplarni moliyalashtirish uchun texnologik parklar va inkubatsiya markazlari faoliyati kengaymoqda.</p> <p>Moliyaviy xizmatlarning diversifikatsiyasi Bank kreditlari bilan bir qatorda lizing, faktoring, kraudfanding va davlat-xususiy sheriklik loyihalari rivojlanmoqda.</p> <p>Fintech (finans texnologiyalari) xizmatlari orqali tadbirkorlar uchun onlayn kreditlash va to'lov tizimlari kengaymoqda.</p> <p>Raqamli texnologiyalar joriy etilishi Elektron tijorat va to'lov tizimlari orqali moliyalashtirishga imkoniyatlar kengaymoqda.</p> <p>Blokcheyn texnologiyalari orqali shaffof va xavfsiz moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilmoqda.</p> <p>Kapital bozorining rivojlanishi IPO (Initial Public Offering) va obligatsiyalar chiqarish orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini ko'paytiradi.</p> <p>Korporativ obligatsiyalar va investitsion fondlar orqali uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlari kengaymoqda.</p>	<p>Moliyaviy resurslarga cheklangan kirish Xususan, kichik biznes va startaplarni uchun kredit olish murakkabligi yuqori.</p> <p>Qattiq kredit siyosati va yuqori foiz stavkalari sababli ko'plab subyektlar kredit ololmaydi.</p> <p>Yuqori foiz stavkalari Tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan kreditlarning foiz stavkalari yuqori bo'lib, bu biznes subyektlari uchun moliyaviy yukni oshiradi.</p> <p>Inflyatsiya va pul-kredit siyosatining o'zgarishi kredit foiz stavkalariga ta'sir qiladi.</p> <p>Garov talablari yuqoriligi Kredit olish uchun yuqori garov talab qilinishi tadbirkorlar uchun to'siq bo'lib qolmoqda.</p> <p>Ko'pgina kichik korxonalar garov ta'minotiga ega emas.</p> <p>Moliyaviy savodxonlik pastligi Ko'plab tadbirkorlar biznes-reja tuzish va investitsiya jalb qilish bo'yicha yetarli bilim va tajribaga ega emas.</p> <p>Moliyaviy xatarlarni boshqarish, soliqqa oid qonunchilik va kreditlash mexanizmlari bo'yicha bilimlar sust.</p> <p>Byurokratik to'siqlar Kredit olish va davlat subsidiyalaridan foydalanish jarayoni uzoq va murakkab bo'lishi.</p> <p>Davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samarasizligi yoki yetarlicha shaffof bo'lmasligi.</p>
IMKONIYATLAR (OPPORTUNITIES)	TAHDIDLAR (THREATS)
<p>Xalqaro investitsiyalar jalb qilish Xorijiy investorlar bilan hamkorlik qilish orqali moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish.</p> <p>Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Osiyo taraqqiyot banki kabi institutlar bilan ishlash.</p> <p>Innovatsion moliyalashtirish usullarini rivojlantirish Kraudfanding (crowdfunding), peer-to-peer lending (P2P kreditlash) va decentralized finance (DeFi) platformalarini joriy etish.</p> <p>Fintech kompaniyalari orqali tezkor onlayn kreditlash xizmatlarini rivojlantirish.</p> <p>Davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish Infratuzilma va sanoat loyihalarini moliyalashtirishda davlat va xususiy sektorning hamkorligini kengaytirish.</p> <p>Davlat investitsiya dasturlarini xalqaro moliyaviy institutlar bilan bog'lash.</p> <p>Bank tizimini isloh qilish Banklarning kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish jarayonlarini soddalashtirish.</p> <p>Kreditlash sharoitlarini yengillashtirish va uzoq muddatli kredit mahsulotlarini yaratish.</p> <p>Raqamli moliyalashtirish vositalari Mobil banking, elektron to'lov tizimlari va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish.</p>	<p>Makroiqtisodiy beqarorlik Inflyatsiya va valyuta kursining o'zgaruvchanligi. Geosiyosiy vaziyat va global iqtisodiy inqirozlar.</p> <p>Moliyaviy firibgarlik va xatarlar Kredit to'lov qobiliyati past bo'lgan subyektlarning ko'payishi.</p> <p>Firibgarlik va noqonuniy moliyaviy operatsiyalar xavfi.</p> <p>Regulyativ muammolar Moliyaviy bozorlarga oid qonunchilikning tez-tez o'zgarishi.</p> <p>Davlat siyosatining biznes muhitiga bo'lgan ta'sirining oshishi.</p> <p>Tashqi qarzni ortishi Xususiy sektor va davlat qarzlarning ortishi.</p> <p>Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan korxonalarining qaramligi.</p> <p>Bank tizimidagi likvidlik muammolari Banklarning kredit berish imkoniyatlarining kamayishi.</p>

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi.

FinTech (Financial Technology) – bu moliya xizmatlarini innovatsion texnologiyalar yordamida taqdim etuvchi tizim bo'lib, u blokcheyn, sun'iy intellekt, big data (katta hajmdagi ma'lumotlar), bulutli hisob-kitob va mobil to'lov tizimlari kabi ilg'or texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Raqamli moliyalashtirish esa korxonalar va tashkilotlarga kredit olish, investitsiya jalb qilish va moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda qulay sharoit yaratadi.

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishining barqarorligini ta'minlashda xo'jalik yurituvchi subyektlarning samarali moliyalashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu subyektlar, ya'ni tadbirkorlik subyektlari, kichik va o'rta biznes vakillari hamda yirik sanoat korxonalari iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo'lib, ularning moliyaviy ta'minoti to'g'ri yo'lga qo'yilgan taqdirdagina uzluksiz faoliyat yuritishi va barqaror rivojlanishi mumkin. Shu sababli, moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish va mavjud muammolarni aniqlash dolzarb masalalardan biridir. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, aksariyat xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarga yetarli darajada ega emas yoki kredit olish jarayonida qiyinchiliklarga duch keladi. Bu esa ularning kengayishiga, ishlab chiqarish hajmini oshirishiga va innovatsion rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun moliyalashtirish tizimining afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash, uni takomillashtirish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

SWOT tahlili xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliyalashtirish mexanizmlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish hamda potensial tahdidlarga nisbatan oldindan strategik chora-tadbirlar ishlab chiqish imkonini beradi. Ushbu tahlil moliyaviy tizimning rivojlanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlashga yordam beradi hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning barqaror moliyaviy ta'minotini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Birinchidan, SWOT tahlili yordamida mavjud moliyalashtirish mexanizmlarining ustun va zaif tomonlari o'rganiladi. Bu esa subyektlarning moliyaviy barqarorligi uchun qaysi yo'nalishda ishlash kerakligini aniqlash imkonini beradi. Masalan, bank kreditlari, investitsiya dasturlari, davlat subsidiyalari va xalqaro moliyaviy institutlarning grantlari kabi imkoniyatlar mavjud bo'lsa-da, ularning hammasi ham barcha subyektlar uchun teng darajada ochiq emas. Shu sababli, mavjud moliyaviy vositalarning samaradorligini oshirish va ularning barcha subyektlar uchun qulayligini ta'minlash muhimdir.

Ikkinchidan, SWOT tahlili yangi imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi. Masalan, raqamli moliyalashtirish vositalarining rivojlanishi, onlayn kreditlash tizimlari, kraudfanding platformalari va blokcheyn texnologiyalari biznes subyektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu tahlil orqali ushbu innovatsion mexanizmlardan qanday foydalanish mumkinligini aniqlash mumkin.

Uchinchidan, SWOT tahlili mavjud va potensial tahdidlarni aniqlash imkonini beradi. Masalan, global iqtisodiy inqirozlar, inflyatsiya darajasining oshishi, valyuta kurslarining beqarorligi, kreditlash bozorining o'zgaruvchanligi kabi omillar biznesni moliyalashtirish tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, ushbu omillarga qarshi oldindan choralar ko'rish muhim sanaladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha SWOT tahlili bajarilishi iqtisodiy barqarorlik va samaradorlikni oshirish, moliyaviy resurslarni oqilona boshqarish hamda tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy ko'mak ko'rsatish bo'yicha strategik qarorlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Ushbu tahlil natijalari asosida davlat siyosatini yanada takomillashtirish, yangi moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish va mavjud muammolarni bartaraf etish yo'nalishlarida aniq tavsiyalar ishlab chiqish mumkin.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va tadbirkorlik muhitini yaxshilash uchun muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

Moliyaviy savodxonlikni oshirish – Tadbirlar, seminarlar va onlayn kurslar orqali tadbirkorlarning moliyaviy resurslardan samarali foydalanish bo'yicha bilimlarini oshirish.

Arzon va uzoq muddatli kredit resurslarini kengaytirish – Bank tizimini liberallashtirish va davlat subsidiyalari orqali kreditlash shartlarini yumshatish.

Investitsiya muhitini yaxshilash – Chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, jumladan, soliqliq imtiyozlari va qonuniy kafolatlar berish.

Kapital bozorini rivojlantirish – IPO va obligatsiyalar orqali mablag' jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish, fond bozorlarini rivojlantirish.

Innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish – Fintex xizmatlarini rivojlantirish, kraudfanding va venchur kapital mexanizmlarini kengaytirish.

Moliyaviy shaffoflikni oshirish – Kredit reyting tizimini takomillashtirish va korporativ boshqaruv standartlarini kuchaytirish.

Yuqoridagi tavsiyalar amalga oshirilishi natijasida O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi oshadi, investitsion muhit yaxshilanadi hamda biznes subyektlarining keng rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Bu esa iqtisodiyotning barqaror o'sishi va raqobatbardosh bo'lishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar / Jumepamypa / Reference:

Arner, D.W., Barberis, J. and Buckley, R.P. (2018) 'FinTech and RegTech', *Journal of Banking Regulation*. <https://link.springer.com/article/10.1057/s41261-018-0072-6>.

Bogsnes, B. (2020) *Implementing Beyond Budgeting*. Wiley. <https://bbbt.org/beyond-budgeting>.

Cumming, D. and Johan, S. (2017) *Venture Capital and Private Equity Contracting*. <https://www.sciencedirect.com/book/9780124095956/venture-capital-and-private-equity-contracting>.

Damodaran, A. (2020) *Corporate Finance: Theory and Practice*. 4th edn. Wiley. https://pages.stern.nyu.edu/~adamodar/New_Home_Page/cfbook.htm.

Kaplan, R.S. and Cooper, R. (2019) *Cost & Effect*. Harvard Business School Press. <https://www.hbs.edu/faculty/Pages/item.aspx?num=915>.

Kotler, P., Kartajaya, H. and Setiawan, I. (2021) *Marketing 5.0*. Wiley. <https://www.wiley.com/en-us/Marketing+5.0-p-9781119668513>.

Mishkin, F.S. (2021) *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. <https://www.pearson.com/en-us/subject-catalog/p/economics-of-money-banking-and-financial-markets/P200000003481>.

Porter, M.E. and Kramer, M.R. (2019) 'Creating Shared Value', *Harvard Business Review*. <https://hbr.org/2011/01/the-big-idea-creating-shared-value>.